

#referendum_2023



#referendum_2023

YANGILANAYOTGAN KONSTITUTSIYA LOYIHASI MUHOKAMADA

??31-mart kuni Termiz davlat universiteti Kimyo fakulteti faollar zalida xalq muhokamasiga qo'yilgan "O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi to'g'risida" gi Konstitusiyaviy qonun loyihasi, unga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar mazmun-mohiyatiga bag'ishlangan navbatdagi tadbir bo'lib o'tdi.

?Unda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a'zosi O.Soatov, Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashi deputati, Rus va qardosh tillar fakulteti dekani P. Bakirov, fakultet dekani X.Turayev hamda fakultet professor-o'qituvchilar va talabalarini ishtirok etishdi.

□ Tadbirda "O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi to'g'risida" gi Konstitusiyaviy qonun loyihasiga kiritilgan yangilik va o'zgarishlar, mazkur qonun loyihasi asosida shu yilning 30-aprel sanasida o'tkazilishi kutilayotgan referendum to'g'risida ma'ruzalar tinglandi.







